

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti**  
**Kuzatuv kengashining**  
**2025 yil 16 yanvardagi yig'ilishining 1-son**  
**BAYONNOMASIDAN KO'CHIRMA**

**Qatnashdilar:**

**Kuzatuv kengashi raisi:** Ashurov Muxsin Xurramovich

**Kuzatuv kengashi kotibi:** Usmanova Dilafuz Qarshiyevna

**Kuzatuv kengashi a'zolari:** Djalolov Shavkat Amonovich, Saidmurodov Uktam, Eshankulov Shaxzod Eshquvvatovich, Shukurlayev Dilshod Dalerovich, Musinov Baxtiyor Muxamedjanovich, Raximov Pulat Raximovich, Yusupov Nosir Fatixovich, Abdulloyev Kamol Talatovich, Xalmuradov Rustam Ibragimovich, Soleyev Axmadjon Soleyevich, Ismayil Usmanovich Raxmanov.

**YIG'ILISH KUN TARTIBI**

**4-masala.** Universitetning ayrim boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlari uchun mehnatga haq to'lash miqdorlarini belgilash.

**Ma'ruzachi:** SamDU moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori I.U.Raxmanov.

Bugungi kunda universitetning boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi, o'quv-yordamchi va boshqa xodimlarining bir qismi uchun mehnatga haq to'lash miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 1 avgustdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 164-son qarori va boshqa tegishli me'yoriy hujjatlar bilan tasdiqlangan miqdorlarda amalga oshirilib kelinmoqda.

Universitetning 2024 yil 1 yanvardan boshlab amal qiladigan tashkiliy tuzilmasi va shtatlar jadvaliga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi, xodimlarning lavozim maoshlarini ish hajmi va ish samaradorligiga nisbatan belgilash - mehnatga haq to'lash miqdorlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo yetadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, universitetning ayrim boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlari mehnatiga haq to'lash miqdorlarini qayta belgilash taklifi tushgan.

Mehnatga haq to'lash miqdorlarini belgilashda xodimlarning lavozimlari va ish hajmi inobatga olingan holda turlicha yondashilganligini va boshqa fikr mulohazalar inobatga olinib, Kuzatuv kengashida muhokama etilgach, Universitet Kuzatuv kengashi yig'ilishida

**QAROR QILINDI:**

1. Universitetning ayrim boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi, o'quv-yordamchi va boshqa xodimlari uchun mehnatga haq to'lash miqdorlari ilovaga asosan tasdiqlansin.

**Kengash raisi**

**Kengash kotibi**

**M.X.Ashurov**

**D.Q.Usmanova**